

FORTEPIANO ANSAMBLARINING ESTRADA IJROCHILIGIDAGI AHAMIYATI

Umarova Mastura

*Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institute
magistratura 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada estrada ijrochiligida fortepiano ansambllarining tutgan o'рни, ularning badiiy-estetik, ijrochilik va pedagogik ahamiyati keng yoritib beriladi. Fortepiano ansambllarining estrada musiqasi rivojidadagi roli, ijrochilik madaniyatini shakllantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy estrada san'atidagi o'рни ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *estrada, fortepiano, ansambl, ijrochilik, jazz, pop musiqqa, improvizatsiya, akkompанiment.*

Аннотация: *В данной статье представлен широкий обзор роли фортепианных ансамблей в поп-музыке, их художественного, эстетического, исполнительского и педагогического значения. Научно проанализирована роль фортепианных ансамблей в развитии поп-музыки, их важность в формировании исполнительской культуры и их место в современном поп-арте.*

Ключевые слова: *поп-музыка, фортепиано, ансамбль, исполнение, джаз, поп-музыка, импровизация, аккомпанемент.*

Abstract: *This article provides a comprehensive overview of the role of piano ensembles in pop music, their artistic, aesthetic, performing, and pedagogical significance. The role of piano ensembles in the development of pop music, their importance in shaping the culture of performance, and their place in modern pop art are scientifically analyzed.*

Keywords: *pop music, piano, ensemble, performance, jazz, pop music, improvisation, accompaniment.*

Zamonaviy musiqqa madaniyatida estrada san'ati muhim o'rin egallaydi.

Estrada ijrochiligi o'zining erkin shakli, sahnaviyligi va janrlar rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Ushbu yo'nalishda fortepiano cholg'usi yetakchi cholg'u sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, fortepiano ansambllari estrada ijrochiligida musiqiy uyg'unlikni ta'minlovchi, ijrochilik mahoratini oshiruvchi va badiiy ifodani boyituvchi asosiy vositalardan biridir.

Fortepiano ansambllari yakka ijroga nisbatan kengroq musiqiy imkoniyatlarga ega bo'lib, ijrochilar o'rtasida musiqiy muloqotni rivojlantiradi. Shu sababli u estrada san'atida ham, musiqqa ta'limi tizimida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassik fortepiano ansamblida ijro qat'iy yozilgan notaga asoslangan bo'lsa, Estrada fortepiano ansamblida erkinlik, zamonaviylik, kreativlikning ustunligi bilan tinglovchining ko'proq e'tiborini tortadi.

Ayniqsa zamonaviy yoshlarda katta qiziqish uyg'otadi. Fortepiano estrada musiqasida ko'p qirrali cholg'u sifatida namoyon bo'ladi. U bir vaqtning o'zida garmonik, ritmik va melodik vazifalarni bajaradi. Estrada ansambllarida fortepiano asosan quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- vokal ijrochilar uchun garmonik tayanch yaratish;
- ritmik barqarorlikni ta'minlash;
- musiqiy obrazni boyitish;
- improvizatsion ijro uchun imkoniyat yaratish.

Fortepiano cholg'usi bu xususiyatlari bilan estrada ansambllarining ajralmas qismiga aylangan.

Fortepiano ansambllari estrada san'atida badiiy va texnik jihatdan muhim vazifalarni bajaradi.

Ansambl tarkibida ijro etish ijrochidan yuqori darajadagi musiqiy savodxonlik, eshitish qobiliyati va jamoaviy mas'uliyatni talab etadi.

- Fortepiano ansambllarining asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:
- ijrochilik madaniyatini shakllantirish;
 - musiqiy tafakkurni rivojlantirish;
 - ritm va temp sezgisini mustahkamlash;
 - sahnaviy tajribani oshirish.

Shuningdek, ansambl ijrochilarda o'zaro hamnafaslik va musiqiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Estrada fortepiano ansambllarining shakllanishi XX asr boshlarida jazz musiqaning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bu davrda fortepiano asosan vokal ijrochilar uchun jo'rnavozlik vazifasini bajargan. Ijro uslubi sodda bo'lib, oddiy akkordlar va ritmik formulalarga asoslangan.

Duet va trio shaklidagi ansambllar keng tarqalgan bo'lib, fortepiano yetakchi cholg'u sifatida namoyon bo'lgan.

XX asrning o'rtalariga kelib estrada va jazz musiqasining ommalashuvi fortepiano ansambllarining rivojlanishiga katta turtki berdi.

Bu davrda ijro texnikasi murakkablashdi, sinkopa va swing ritmlari keng qo'llanila boshlandi, improvizatsiya asosiy ijrochilik vositasiga aylandi.

Fortepiano ansambl tarkibida mustaqil solist sifatida ham faol ishtirok eta boshladi.

"Jaz musiqasining markazida ham fortepiano cholg'usi asosiy o'rin tutadi va bu jarayonda ushbu cholg'uning ahamiyati beqiyosdir.

Ayniqsa, jaz musiqachilari tarkibining "yuragini" tashkil etuvchi ritm-guruhda fortepiano alohida o'ringa ega.

Aynan fortepiano ijrosi musiqiy notani ritmik, melodik, tovushlar koloristikasi va nihoyat, faktura jihatidan boyitilishiga xizmat qiladi."¹

¹ Ansambl sinfi o'quv qo'llanma Zuxra Sodiqova Toshkent-2023

Hozirgi davrda estrada fortepiano ansambllari zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda.

Elektron fortepiano, sintezator va raqamli musiqiy dasturlar ansambllarning ijrochilik imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Zamonaviy estrada ansambllarida turli musiqiy janrlar sintezi, milliy va zamonaviy uslublarning uyg'unligi kuzatiladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va oily ta'lim muassasalarida fortepiano ansambllari muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Ansambl darslari orqali:

o'quvchilarning musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanadi;

ijrochilik intizomi shakllanadi;

sahna tajribasi ortadi.

Bu jarayon kelajakdagi professional estrada ijrochiligiga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, estrada ijrochiligida fortepiano ansambllari musiqiy san'atning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ularning rivojlanishi estrada san'atining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Forteplano ansambllari ijrochilik, pedagogik va badiiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy estrada san'atining rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Z. Muhammadjonova "Fortepiano ansamblini o'qitish uslubiyoti" O'quv qo'llanma Toshkent-2010.
2. Sh. Zakirova "Fortepiano" O'quv qo'llanma Toshkent-2017.
3. Z. Sodiqova "Ansambl sinfi" O'quv qo'llanma Toshkent-2023.
4. S. Abdusattorova. "Jamo'ia ijrochiligi uslubiyoti" O'quv qo'llanma Toshkent-2024.
5. Z. Abdurazzoqova "Fortepiano" O'quv qo'llanma Toshkent-2025.
6. "Zamonaviy Estrada musiqasi" Ilmiy maqolalar to'plami Toshkent-2026.